

AXBOROT KUTUBXONA MUASSASALARIDA ZAMONAVIY AXBOROT-KUTUBXONA XIZMATLARI

Pirmedova Xaytgul Muxammedovna

TDYU ARM direktori.

Xalikova Muxabbat Akbar qizi

TDYU ARM axborot texnologiyalari bo‘yicha yetakchi mutaxassis.

Sharipova Gulshan Asad qizi

TDYU ARM bo‘lim mudiri.

ANNOTATSIYA

Maqolada dunyodagi eng nufuzli bo‘lgan universitetlarning kutubxonalaridagi Axborot-kutubxona xizmatlari tahlil qilindi va ularni O‘zbekistondagi oliy yurtlari kutubxonalarida joriy qilish imkoniyatlari o‘rganildi.

Kalit so‘zlar.

Axborot-kutubxona xizmatlari, oliy o‘quv yurtlari kutubxonalari, elektron kutubxona.

ABSTRACT

The article analyzed information-library services in the libraries of the most prestigious universities in the world and explored the possibilities of their implementation in the libraries of higher institutions in Uzbekistan.

Key words.

Information-library services, libraries of higher educational institutions, electronic library.

Yoshlarning intelektual salohiyatini oshirishda axborot-kutubxona muassasalarining o‘rni beqiyosdir. Qadimdan kutubxonalar ilm tarqatuvchi maskan hisoblanib kelingan. Asosiy vazifa albatta kutubxonachi zimmasiga tushar edi. Bugungi kunga kelib bu vazifa yanada mas’uliyatli tus olmoqda.

Axborot-kutubxona muassasalarining bosh maqsadi barcha toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan talabini qondirishdan iborat. Ushbu maqsad yo‘lida har bir axborot-kutubxona muassasasi o‘zi uchun strategiya ishlab chiqishi va turli toifadagi foydalanuvchilarga ko‘rsatish mumkin bo‘lgan axborot-kutubxona xizmatlari sonini ko‘paytirib borishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanuvchilarning qiziqishlarini o‘rganish, foydalanuvchilarga ijod erkinligini yaratib berish, jamiyatning boshqa uyushmalari bilan hamkorlikda izlanishlar olib borish va o‘zaro hamkorlikni rag‘batlantirish axborot-kutubxona muassasalari oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Dunyo kutubxonalarining faoliyatini kuzatib shunga amin bo‘lish mumkinki, kutubxonalarda kitobxonga ma’lumot-axborot xizmati ko‘rsatish kutubxona xodimlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Kutubxona xodimlari ham shu o‘rinda, ilmiy izlanuvchi vazifasini bajaradigan shaxslar hisoblanadi. O‘z ilmiy izlanishlari bilan kutubxona foydalanuvchilarining axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishadi.

Ushbu tadqiqotdan maqsad dunyodagi eng nufuzli bo‘lgan universitetlarning kutubxonalarini tahlil qilish va ularni O‘zbekistonidagi oliy yurtlari kutubxonalarida joriy qilish. Tadqiqot quyidagi uchta eng yuqori o‘rinlarda turuvchi universitetlar kutubxonalari doirasida amalga oshirildi.

1. “Harvard Library” Garvard universiteti kutubxonasi. Kutubxona 1638 yilda tashkil etilgan, AQSh dagi eng qadimgi hamda dunyodagi eng kata akademik kutubxona tizimi hisoblanadi. Garvard universitetiga tegishli kutubxonalar 25 dan ortiq bo‘lib, u yerda 800 dan ortiq xodimlar ishlashadi. Kutubxona fondi 60 millionda ortiq moddiy hamda elektron resurslar bo‘lib, ular 460 dan ortiq dunyo tillarida yozilgan manbalardir.

2. “Bodleian Libraries” Oksford universiteti kutubxonalari. Bodleian kutubxonalar Oksford universitetini qo‘llab-quvvatlaydigan kutubxonalar tizimidir. Kutubxona 4 asr muqaddam tashkil etilgan bo‘lib, hozirda Buyuk britaniyadagi eng yirik

kutubxona hisoblanadi. Kutubxonada 13 milliondan ortiq bosma nashrlar, 80 000 dan ortiq elektron jurnallar va noyob kitoblar va qo‘lyozmalar, klassik papiruslar, xaritalar, musiqa, san’at va bosma efemera kabi ajoyib maxsus to‘plamlar mavjud.

3. “ASU Library” Arizona davlat universiteti kutubxonasi. Kutubxona 1975 yilda barpo qilingan bo‘lib, Kutubxona fondi 6 milliondan ortiq bosma nashrlar, 1 000 dan ortiq elektron jurnallar va noyob kitoblar va qo‘lyozmalardan iborat.

Dunyodagi eng nufuzli universitetlar kutubxonalarida xizmatlar tahlili.

№	Kutubxonalarda ko‘rsatiladigan xizmatlar nomi	Tashkilot nomi		
		“Harvard Library” Garvard universiteti kutubxonasi	“Bodleian Libraries” Oksford universiteti kutubxonasi	“ASU Library” Arizona davlat universiteti kutubxonasi
1	Internet, wifi	+	+	+
2	Yig‘ma elektron katalog xizmatidan foydalanish	+	+	+
3	Bibliografiya xizmati	+	+	+
4	Ma’lumot-axborot xizmati	+	+	+
5	Elektron kutubxona	+	+	+
6	Printer, skayner va nusxa olish xizmatlari	+	+	+
7	O‘quv zallarini jamoa bo‘lib bron qilish xizmati	+	+	+
8	Ko‘chma kutubxonalar tashkil qilish xizmati	+	+	+
9	Nogironlar uchun maxsus xizmatlar	+	+	+
10	Ekskursiya xizmatlari	+	+	+
11	Kompyuterlarni ijaraga	+	+	+

	berish xizmatlari			
12	Turli xil qo'shimcha kurslar	+	+	+
13	Maxsus mutaxassislar xizmati	+	+	+
14	Ilmiy ma'lumot bazalariga a'zolik	+	+	+
15	Online a'zo bo'lish	+	+	+
16	Masofadan kitobxonga xizmat ko'rsatish	+	+	+
17	Masofadan to'lovlar qilish imkoniyati	+	+	+
18	Turli xil qo'shimcha kurslar	+	+	+
19	Nashr hamda media xizmatlari	+	+	+
20	Kitoblarni uygaga yetkazib berish xizmati	+	+	+
21	Foydalanuvchilarga kutubxona manbalarini targ'ib qilish	+	+	+
22	Kutubxona xodimidan so'rang xizmatlari (ASKaLibrarian)	+	+	+
23	Ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumot beruvchi bloglar	+	+	+
24	Kutubxona fondi qilingan podcastlar	+	+	+

Mazkur Kutubxonalarining maqsadi keng ommaga ko'rsatiladigan xizmatlar sonini oshirish natijasida foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat.

Axborot-kutubxona xizmatlarini asosan ikki turga bo‘lish mumkin: an’anaviy va noan’anaviy xizmatlar. An’anaviy xizmatlar bu kitob berish, kataloglashtirish, bibliografiya, fondni saqlash kabi xizmatlar sanalsa, noan’anaviy xizmatlar safiga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko‘rsatish kiradi. Bugungi kunda noan’anaviy axborot-kutubxona xizmatlaridan foydalanuvchilar soni oshib borayotganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Tahlil natijalariga ko‘ra foydalanuvchilar e’tiborini onlayn tarzda amalga oshirilayotgan xizmatlar jalb qilayotgani ma’lum bo‘ldi. Asosan elektron kutubxona yaratish xizmatlariga, aynan kutubxonachilik ishidagi to‘lovlarni onlayn amalga oshirish xizmatiga va ilmiy-ta’limiy ma’lumotlar bazalaridan uzluksiz foydalanishni joriy etish kabi xizmatlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda.

O‘zbekiston jahon miqiyosiga chiqishi, dunyodagi ilm-fan sohasidagi ilg‘or yangiliklardan juda tez xabardor bo‘lishi va O‘zbekiston olimlarini dunyo tanishi uchun ham xalqaro tashkilotlar bilan ma’lumot almashishi muhim sanaladi. Shu maqsadda O‘zbekiston bir necha yirik ilmiy-ta’limiy ma’lumotlar bazalarga a’zo bo‘lib, ular jumlasiga Ebsco, Emerald, Springer, ProQuest, Thomson Reuterslar kiradi. Lekin jahondagi boshqa yirik kutubxonalarning ilmiy-ta’limiy ma’lumotlar bazalaridan foydalanish sur’ati biznikiga nisbatan 20 baravardan 100 baravargacha yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishi uchun ilmiy-ta’limiy ma’lumotlar bazalaridan uzluksiz foydalanishni yo‘lga qo‘yishi, ilmiy-ta’limiy ma’lumotlar bazalarini shakllantirishi, mualliflar bilan masofadan turib har qanday masalalarni hal qila olish metodikasini va mavjud ilmiy-ta’limiy resurslar targ‘ibotini muntazam amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishi hamda ularni tadbiq etishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR

- 1.Umarov A.A. Mamlakat kutubxonachiligi islohotlar yo‘lida: muammolar va yechimlar// Fan, ta’lim, madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish. To‘rtinchi xalqaro konferensiya materiallari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.-2006.- 10-15 b.
- 2.Karimov U. Kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirish: muammolar, yechimlar// INFOCOM.UZ – 2006 . - № 12.- T.: 31-34 b.
- 3.XXI asrda ma’lumot va axborot xizmatlari / K.E. Kassan, U. Hayrmat.-Toshkent: Baktria press, 2014.-464b.
4. <https://library.harvard.edu/>
5. <https://www.bodleian.ox.ac.uk/>
6. <https://lib.asu.edu/>